



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - mart

VI-59-59-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-sonli Farmoni ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan saylangan partiya deputatlik guruhi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash borasida tuman davlat soliq inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotni muhokama etilganligi hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida muhokoma qilinganini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi tashabbusi bilan xalq deputatlari tuman Kengashi muhokamasiga kiritilgan tumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash borasida tuman davlat soliq inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Sharipovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov), tegishli tashkilot va idoralar bilan birgalikda:**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini muddatlarida va sifatli ijro etilishini ta‘minlasin;

- amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida 2023-yil 1-chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritgin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Sessiya raisi**



**X.Xolmurodov**